ANTIK DAVR MANBALARIDA O'RTA OSIYONING SIYOSIY VA IQTISODIY HAYOTI BAYONI

Rejapov Doniyor
Tadqiqotchi, Urganch
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23084150

Annotatsiya. Mazkur maqolada antik davr manbalarida O'rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayoti masalalari yoritiladi. Unda yunon-rim tarixchilari, geograflari hamda qadimgi Sharq manbalarida O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan siyosiy tuzilmalar, davlatlar va ularning o'zaro munosabatlari haqida keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi davrda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Antik manbalar asosida O'rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti, hududning qadimgi dunyo davlatlari bilan aloqalari hamda mintaqaning tarixiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: antik davr, O'rta Osiyo, siyosiy hayot, iqtisodiy hayot, qadimgi manbalar, yunon-rim tarixchilari, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, savdo, hunarmandchilik, Buyuk Ipak yo'li.

ОПИСАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ИСТОЧНИКАХ АНТИЧНОГО ПЕРИОДА

Реджапов Данияр
Исследователь, Ургенч

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы политической и экономической жизни Средней Азии в античных источниках. Анализируются сведения греко-римских историков, географов и древневосточных источников о политических образованиях, государствах, существовавших на территории Средней Азии, а также их взаимоотношениях. Особое внимание уделяется развитию земледелия, скотоводства, ремесла, торговли и экономических связей, связанных с древними торговыми путями и Великим шёлковым путём. На основе античных источников раскрываются особенности политического и экономического развития региона, его связи с государствами Древнего мира и историческое значение Средней Азии.

Ключевые слова: античный период, Средняя Азия, политическая жизнь, экономическая жизнь, древние источники, греко-римские историки, Бактрия, Согдиана, Хорезм, торговля, ремесло, Великий шёлковый путь.

THE POLITICAL AND ECONOMIC LIFE OF CENTRAL ASIA AS DESCRIBED IN ANCIENT SOURCES

Rejapov Doniyor
Researcher, Urgench

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Abstract. This article examines the political and economic life of Central Asia as reflected in ancient sources. It analyzes information provided by Greek and Roman historians, geographers, and ancient Eastern sources concerning the political formations and states that existed in the territory of Central Asia, as well as their political relations. Particular attention is paid to the development of agriculture, pastoralism, handicrafts, trade, and economic relations associated with ancient trade routes and the Silk Road. Based on ancient sources, the article highlights the main features of the political and economic development of Central Asia, its relations with the states of the ancient world, and its historical significance.

Keywords: ancient period, Central Asia, political life, economic life, ancient sources, Greco-Roman historians, Bactria, Sogdiana, Khorezm, trade, handicrafts, Silk Road.

Antik davr mualliflari asarlarida O'rta Osiyoning ahamoniylar tomonidan bosib olinishi jarayoni bayon qilingan bo'lsa, ahamoniylar davri yozma manbalarida imperiya tarkibiga kirgan davlatlar sanab o'tilgan. Qadimgi Baqtriya, Sug'd, Xorazm davlati to'g'risidagi ma'lumotlar Behistun qoya toshida, Suza saroyining bo'rtma tasvirlarida, 1972 yilda Suzadan topilgan Doro I haykalida, uning qabrida, Kserksning Persepoldagi uchta tilda yozilgan devlarga qarshi yozuvlarida yozib qoldirilgan. Suza saroyidan topilgan yozuv 1929 yilda e'lon qilingan bo'lib, yozuvda Doro I ning saroyini qurilishida ishlatilgan oltinlar Baqtriya davlatidan olib kelinganligi bayon qilingan[1]. La'l, simob rudasi (qizil rangli mineral) Sug'ddan olib kelinganligi haqidagi ma'lumotlar bor. A.V.Livshits bu ma'lumotni tahlil qilgan va la'lning Badaxshondan olinganligi va u hudud Sug'd davlatining janubi–sharqiy chegarasiga to'g'ri kelishini ko'rsatgan[2]. Suzadagi saroyni qurishda ishlatilgan to'q–ko'k yaltiroq tosh – "axshayna" Xorazmdan olib kelingan[3]. "Axshayna" qanday tosh ekanligi haqidagi tadqiqotchilar o'rtasida turli xil fikrlar ilgari surilgan. Bu tosh ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan "feruza" toshi deb e'tirof etilgan.

Persepol saroyi pillapoyalaridagi bo'rtma suratlarda ahamoniylar imperiyasiga qaram bo'lgan xalqlarning tasvirlari berilgan. Bu bo'rtma real tarzda ishlangan tasvirlar orqali o'sha davrda yashagan turli xalqlarning tashqi ko'rinishlarini, kiyinish uslublarini va qo'llarida ushlagan buyumlari orqali xo'jalik hayotini haqida ham tasavvurga ega bo'lamiz. Sug'diylarning yettitasi 8–qatorda aks ettirilgan. Ular idishlar, matolar va hayvon terisini ko'tarib olgan. Ikkita qo'yni yetaklab kelayotganligi tasvirlangan. O'n beshinchi qatorda baqtriyaliklar bo'lib, ular idish ushlagan va ikki o'rkachli tuyani olib kelayotganligi aks etgan. Xorazmliklar esa, o'n yettinchi qatorda bo'lib, ularning qo'lida pichoq, jangovar jang boltasi, bilakuzuk, ot olib kelayotganligi tasvirlangan[4].

Doro I o'zi sharafiga yozdirgan Behistun qoya tosh yozuvlarida Marg'iyona va Baqtriya to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud[5]: "Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqib ketdi. Marg'iyonalik Frada ismli odam o'zini viloyatning hokimi deb e'lon qildi. Keyin men, Baqtriya satrapi, bo'ysunuvchi odamim fors Dadarshishni chaqirib, unga gapirdim: Menga bo'ysunmaganlarni tor–mor

[1] Хрестоматия по история Древнего Востока. — Москва: Высш. школа, 1980. – С. 38.
[2] Ливщич В.А. История изучения Согда. – С. 2.
[3] Хрестоматия по истории Древнего Востока. – С. 39.
[4] Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O`zbekiston, 2015. – Б. 102; Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – С. 144 – 145.
[5] Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1968. – 355 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qilish kerak. Dadarshish qo'shinlari bilan otlanib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Axuramazda menga yordam ko'rsatdi. Axuramazda irodasi bilan mening qo'shinlarim qo'zg'olonchilarni butunlay mag'lubiyatga uchratdi. Mana mening Marg'iyonada qilganlarim". Bu ma'lumot orqali biz Doro I taxtga kelganida unga ko'pchilik xalqlar g'alayon ko'tarib ajralib chiqishga xarakat qilganlari qatorida Marg'iyona ham bo'lganligi va u yerdagi g'alayonni Baqtriya satrapi yordamida shavqatsiz ravishda bostirganligini ko'ramiz.

"Tarix otasi" deb nom olgan Geradot asarida Baqtriyaning Kir II tomonidan bosib olinishi jarayoni bayon qilingan. Uning "Tarix" asarida quyidagicha keltirilgan: "Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar asosiy to'siq bo'lgan. Bu xalqlarga qarshi Kirning o'zi bostirib borishni, ioniyaliklarga qarshi boshqa harbiy qo'mondonni yuborishni rejalashtirgan"[6], yana – "Quyi Osiyoni Garpag odamsiz qoldirdi, yuqorisini Kirning o'zi. U xalqlarni birma–bir bo'ysundirib bordi, lekin biriga ham shavqat qilmadi," – deb yozib qoldirgan. Bu bilan Kir II tomonidan bosib olingan qudratli davlatlar sanab o'tilgan va ularni bosib olish jarayoni o'ta shafqatsiz tarzda olib borilganligi ayon bo'ladi. Baqtriyaning bosib olinishi Ktesiy asarida ham yozib qoldirilgan. Unda Kir II ning Baqtriyaga qarshi jang harakatlarining natijasiz bo'lganligini, ya'ni jang qanchalik shiddat bilan olib borilganligiga qaramay, Baqtriya aholisi taslim bo'lmaganligi yozgan. Faqat Midiya podshosi Astiag Kir II ning otasi, Amitida uning onasi deb tan olinganligi haqidagi xabarni baqtriyaliklar olgachgina jangni ttatib taslim bo'lishgan va Kir II hukmronligini tan olganlar deb yozib qoldirgan[7].

Gerodotning asarida Doro I ning taxtni egallash jarayonida sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar va olib borgan siyosati yozib qoldirilgan. Doro I birinchi bo'lib, imperiyani 20 ta satraplikga bo'lib, ularga soliqlarni joriy qilgan. Baqtriya o'n ikkinchi satraplik bo'lgan, uning hududi Baqtriyadan egllargacha bo'lgan, 350 ta kumush talant soliq solingan. Sug'd va Xorazmliklar o'n oltinchi satraplik tarkibida bo'lib, unga parflar, xorasmiylar, sug'dlar va ariylar kirgan. Ular 300 ta kumush talant soliq to'laganlar[8]. O'rta Osiyo hududida yana bir o'n beshinchi satraplik tashkil etilgan. Bu saklar va Kaspiylar bo'lib, ulardan 250 talant miqdorida soliq olingan.

Ahamoniylar tomonidan solingan soliq "talant" miqdori tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan va og'irligi turlicha ko'rsatilgan[9]. N.A.Egamberdiyevaning tadqiqot ishida talant miqdori tahlil qilinib, uning ikkita turi bo'lganligi ko'rsatilgan. Og'ir turi 60,4 kilogramm bo'lgan. Ikkinchi turi yengil talant bo'lib, u "podsho talanti" deb atalgan, og'irligi 30,2 kilogramm bo'lgan[10]. Tadqiqotchi tomonidan olingan soliq miqdori bugungi kun nuqtai nazaridan matematik uslubda analiz qilingan. Bunda talant miqdori 30,2 kilogrammdan olingan bo'lib, talant miqdoriga ko'paytirilgan. Bunda Baktriya satrapligidagi 360 talant 10 872 kilogrammni tashkil qilgan. Xorazm, Parfiya, So'g'd, Ariyadan olingan 300 talant 9060 kilogrammni, saklar va Kaspiylardan 250 talant 7550 kilogrammni tashkil qilgan. O'rta Osiyo hududidan har yili 910 talant olingan. Bu esa, 27482 dan ortiq kilogramm kumushni tashkil qilgan. Bu esa, ahamoniylar tomonidan har yili O'rta Osiyodagi satrapliklardan yigirma yetti tonnadan ortiq kumushni soliq sifatida olib ketilgan deb ko'rsatadi. Bunday tahlil natijasi

---

[6] Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – 600 с.
[7] Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в девности. – С. 40.
[8] Геродот. III, 93.
[9] Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. –С. 85; Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). –Toshkent. Innovatsiya-ziyo. 2020. -B. 15-16: Money, Weights and Measures in Antiquity. http: // www.livius.org
[10] Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. -B. 16.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yana bir masalani vujudga keltiradi. O'rta Osiyo hududidan har yili shu qadar katta miqdordagi kumushni olib ketishganmi, qadimgi davlatlar kumushni qaerdan olishgan, vaholanki qadimgi davrga oid kumush konlari kam aniqlangan yoki talant miqdori noto'g'ri berilganmi degan savol tug'iladi. Bu esa, albatta mazkur masalani oydinlashtirish uchun uni geologlar bilan hamkorlikda keng tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi.

Gerodot kitobining yettinchi qismida Kserks I (mil.avv.486–464) ning yunonlarga qarshi janggi tasvirlangan. Unda forslar armiyasining tarkibi va qurollarini yozish jarayonida baqtriyaliklar ham eslab o'tilgan: "Baqtriyaliklarning qalpoqlari midiyaliklarnikiga juda o'xshagan, ular qamishdan yasalgan o'q va kalta nayzalar bilan qurollanganlar. Baqtriyaliklar va saklarga Gistasp Doro va Atossaning o'g'li boshchilik qilgan"[11]. Parfiyaliklar, sug'diylar, xorazmliklar, gandariyalik va dadiklarning harbiy qurollari baqtriyaliklarniki bilan bir xil bo'lganligi ko'rsatilgan[12]. Baqtriyaliklarning otliq jangchilari ham bo'lganligini ko'rsatib o'tgan.

Umuman olganda, antik davr manbalarini o'rganish O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu manbalarni arxeologik topilmalar va boshqa tarixiy dalillar bilan qiyosiy o'rganish mintaqaning qadimgi tarixini yanada to'liq va xolis yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Геродот. История. — Москва: Наука, 1972.
2. Страбон. География. Книга XI. — Москва: Наука, 1964.
3. Арриан. Поход Александра. — Москва: МИФ, 1993.
4. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. — Москва: Издательство Московского университета, 1993.
5. Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Книги XVII–XX. — Москва: Наука, 1989.
6. Бернштам А.Н. История киргиз и Киргизии. — Фрунзе: Киргизское государственное издательство, 1990.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. — Москва: Издательство Московского университета, 1948.
8. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Т. 1. — Москва: Наука, 1964.
9. Авесто. Яштлар. — Тошкент: Шарқ, 2001.
10. O'zbekiston tarixi. 1-jild: Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. — Toshkent: Fan, 2017.
11. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2015.
12. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. — Toshkent: O'qituvchi, 1996.
13. Rtveladze E.V. Buyuk Ipak yo'li. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1999.
14. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
15. Markaziy Osiyo tarixi: qadimgi davrdan hozirgi kungacha. — Toshkent: O'zbekiston, tegishli nashrlar.

[11] Геродот. VII, 64.
[12] Геродот. VII, 66.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.